
YOSHLAR MUAMMOLARI HAL ETILMOQDA

Bugun Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona shahar bo'limi boshlig'i Ahadjon Akramov tomonidan yoshlarning murojaatlari bo'yicha navbatdagi qabul o'tkazildi.

Qabul davomida 20 nafarga yaqin yoshlar o'zlarini qiynab kelayotgan muammolar, tadbirkorlik tashabbuslari va o'zini o'zi band qilish masalalari bo'yicha murojaat qildilar.

Jumladan, subsidiya asosidato'lov kontrakti to'lovi, davolanish, turar-joy ijarasi uchun ko'maklashish, mehnat qurollari va asbob-uskunalar olish hamda moddiy yordam ajratish, tadbirkorlik faoliyatini yo'liga qo'yish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish kabi murojaatlar ko'rib chiqildi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-02-22 10:38:01